

## MUALLIF VA HUQUQ EGALARINI RAG‘BATLANTIRISHDA MUALLIFLIK HAQINING TUTGAN O‘RNI

*Avlaqulov Sobir Shodiqul o‘g‘li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti, “Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi” yo‘nalishi magistranti*

**Аннотация.** Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelayotgan muallif va huquq egalarini rag‘batlantirishda mualliflik haqining o‘rni, uning huquqiy jamiyat uchun ahamiyati va o‘rni qanchalik yuqori ekanligi tahlillar va izlanishlar asosida ochib berilgan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, muallif asardan o‘zi xohlagancha foydalanish, jumladan, ko‘paytirish, tarqatish, omma oldida ijro etish, namoyish qilish, efirga uzatish yoki translyatsiya qilish, shuningdek asarni tarjima qilish va moslashtirish huquqlariga ega hisoblanadi. Bularning muhim jihati shundaki, mualliflikning o‘z ijod mahsulidan belgilangan shartlarda asardan foydalanish uchun boshqalarga ruxsat berish hisoblanadi. Bu kabi ruxsat berish albatta, muayyan haq evaziga amalga oshiriladi. Mualliflik haqi muallif hamda huquq egasi uchun muhim ahamiyatga ega, negaki, muallif qachonki yaratgan asaridan moddiy manfaat ko‘rsagina o‘z faoliyatidan hamda qilayotgan ishidan qoniqish hissi paydo bo‘ladi.

**Аннотация.** В данной статье на основе анализа и исследования раскрывается роль авторского права в поощрении авторов и правообладателей, что является одной из актуальных тем сегодня, его значение и роль для правового общества. Известно, что в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» автор может использовать произведение по своему усмотрению, включая воспроизведение, распространение, публичное исполнение, показ, передачу в эфир или в эфир, а также права на перевод и адаптацию произведения. Важным аспектом при этом является то, что автор дает разрешение другим лицам использовать продукт своего творения на указанных условиях. Разумеется, такое разрешение платное. Авторское право важно для автора и правообладателя, поскольку автор чувствует удовлетворение своим трудом и трудом только тогда, когда получает от своего произведения материальную выгоду.

**Калит so‘zlar:** mualliflik huquqi, muallif va huquq egasi, mualliflik haqi, mualliflik shartnomasi.

**Ключевые слова:** авторское право, автор и правообладатель, авторское гонорар, авторский договор.

**Kirish:** Intellektual faoliyat natijalari muallifi shaxsiy huquqlari bilan bir qatorda, ushbu natijaga nisbatan mulkiy huquqlarga ham ega. Mulkiy huquq mazmuni muallifning o‘zi yaratgan intellektual faoliyat natijasidan foydalanish, boshqalarga haq evaziga foydalanishga ruxsat berish yoxud haq evaziga bu natijaga nisbatan huquqlarni boshqalarga o‘tkazish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Intellektual mulkning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, mualliflik huquqi ham inson intellektual mahsulini himoya qilish bilan bog‘liq. Mualliflik huquqi sohasi adabiy va badiiy asarlarni himoya qilishdir. Asarni har qanday shaklda va har qanday usulda ishlatishga bo‘lgan huquq shu asarni yaratuvchisining, ya’ni muallifning mulkiy huquqidir. Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqqa ega hisoblanadi. Muallifning mutlaq huquqlari uning mulkiy huquqlari deb ataladi, chunki kimning haqini, daromadini yoki foydasini olishdan qat’iy nazar, asardan foydalanish har doim mulkiy foyda keltiradi. Bunday imtiyozlardan iborat asarni shunchaki nashr etish sabab bo‘lmaydi<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda muallifning mutlaq va mulkiy huquqlari borasida Omon Oqyulov fikriga ko‘ra,<sup>2</sup> asar minglab nusxada kitob shaklida nashr etilishi mumkin. Bunda, albatta, nashr etilgan asarning kitob shaklida sotib olgan shaxsda o‘sha kitobga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi, biroq asarga nisbatan mutlaq huquqlar vujudga kelmasligini takidlaydi.

Shu o‘rinda mualliflik huquqida muallif va huquq egasi mavjud bo‘lib, quyida shunga to‘xtalamiz. Jumladan, “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, **muallif** — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs bo‘lsa, **huquq egasi esa** — mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar hisoblanishadi<sup>3</sup>. Bunga misol sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “Shaytanat” asarining muallifi Tohir Malik hamda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti kelishib, bu asarni nashr qilish belgilandi. Bu vaziyatda, **muallif** – yozuvchi Tohir Malik, **huquq egasi esa** “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti hisoblanadi.

### **Muhokama va tahlil natijalari**

Shu o‘rinda aytilish kerakki, Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchilik mualliflar va huquq egalari uchun ularning mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar

<sup>1</sup> I.B.Yaqubova. Mualliflik huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti. 2020. – 120 b.

<sup>2</sup> O. Oqyulov. Intellektual mulk huquqi: Umumiy qoidalar va alohida obyektlar: Huquqshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yo‘nalishi magistratura talabalari uchun. (H.Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). – T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2003. – 209 b.

<sup>3</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.07.2006. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

asosida qayta ishlab chiqarish, tarqatish, ijro etish, namoyish qilish va hosilaviy asarlarni yaratishga mutlaq huquqlar beradi. Bu shuni anglatadiki, mualliflar va huquq egalari o'z asarlaridan qanday foydalanilishini nazorat qilishlari va boshqalarning ruxsatisiz ulardan foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari mumkin.

Mualliflik huquqini himoya qilish mualliflar va huquq egalari turli yo'llar bilan rag'batlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin, jumladan:

**Moliyaviy motivatsiya:** mualliflik huquqi mualliflar va huquq egalari o'z asarlarini sotish va daromad olish imkonini beradi. Bu ularni yangi asarlar yaratish va ijodiy tarkib ishlab chiqarishni davom ettirish uchun moddiy rag'batlantirishi mumkin.

**Professional e'tirof:** mualliflik huquqi mualliflar va huquq egalari o'zlarining professional obro'sini oshirishda ham yordam berishi mumkin. Ularning asarlari mualliflik huquqi bilan himoyalangan va ruxsatsiz foydalanishdan himoyalangan bo'lsa, mualliflar va huquq egalari o'zlarining ijodi va iste'dodi uchun e'tirof etilishi ehtimoli ko'proq bo'ladi.

**Shaxsiy qoniqish:** ko'pgina mualliflar va huquq egalari uchun o'z ishlarini yaratish va baham ko'rish shaxsiy qoniqish manbai hisoblanadi. Mualliflik huquqi ularning ishlari himoyalanganligini va undan qanday foydalanilishi ustidan nazoratga ega ekanligini bilib, ularga xotirjamlik berishi mumkin.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mualliflik huquq obyektlari intellektual mulkning boshqa obyektlariga nisbatan ancha ilgariroq huquqiy muhofaza etila boshlangan. Ko'pgina mualliflar mualliflik huquqining huquqiy muhofazasining vujudga kelishini XVII asr oxirlarida Angliyada qirolicha Anna statutlari bilan bog'laydilar<sup>4</sup>. Tarixda muallifning emas, balki muallifning ruxsatisiz asardan foydalanib daromad ko'rgan shaxsning huquqi himoya qilingan qiziq misollar ham uchraydi. Masalan, 1853-yilda mashhur adiba Garriett Bicher Stou sudga o'zining "Tom tog'aning kulbasi" asarini uning ruxsatisiz nemis tiliga o'girib tarjima qilgan noshir ustidan arz bilan murojaat qildi. Noshir tarjima qilingan bu asarni AQShdagi nemis imigrantlari orasida sotib katta daromad qilgan edi. Sud jabrlanuvchi foydasiga qaror chiqarmadi, balki "shunchaki nusxa ko'chirich emas, balki haqiqiy mehnat" deb topdi<sup>5</sup>.

Sobiq ittifoq davrida mualliflik huquqi obyektlari "umummilliy boylik" sifatida faqat davlatga tegishli bo'lgan, tijorat muomlasida ulardan foydalanish haqida so'z ham bo'lmagan. Bugungi kunda mualliflik huquqi obyektlari nafaqat tijorat muomlasini balki, kundalik hayotimizning ham ajralmas qismini tashkil etadi. Ba'zi mutaxassislarning baholashlaricha, yangi ming yillikning boshlanishida mualliflik huquqiga asoslangan sanoat yo'nailishlarini hissasi, jahon iqtisodiyotida 7,3 % (2,2

<sup>4</sup> Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida obyektlar: Darslik. -T.: TDYU 2003.

<sup>5</sup> Ismoilov Sh. Mualliflik huquqi: kecha, bugun va ertaga! <http://nur.uz/>

trillion dollar)ni tashkil etgan, bunda mazkur sohadagi o'sish yiliga o'rtacha 5 % ni tashkil etdi, bu xatto dunyo iqtisodiyotining o'rtacha o'sishidan ham jadalroqdir<sup>6</sup>.

Mualliflik huquqini himoya qilish muallif uchun ham jamiyat manfaatlari uchun ham muhimdir. U mualliflar va huquq egalarini yangi asarlar yaratishga va ularni ommaga taqdim etishga undaydi. Mualliflik huquqi, shuningdek, mualliflar va huquq egalariga o'z ishlari uchun tovon to'lanishini ta'minlashga yordam beradi.

Muallifning muhim huquqlaridan biri bu – mualliflik shartnomalari tuzgan holda, o'z ijod mahsullaridan o'zgaralar foydalanishi imkonini bergan holda daromad topishlari mumkin ekanliklaridir.

“Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi faqat ushbu huquqlar o'tkazilayotgan shaxs asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishiga ruxsat beradi.

Mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi foydalanuvchiga asardan shunday huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazgan mutlaq huquqlar egasi va (yoki) bu asardan ayni shunday usulda foydalanish uchun ruxsat olgan boshqa shaxslar bilan teng ravishda foydalanishga ijozat beradi<sup>7</sup>.

Mualliflik shartnomasining muhim shartlaridan biri bu – haq evaziga tuzilishi hamda shartnomada foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda muddatlarini ko'rsatish shartligidir.

Muallifning asardan boshqalar foydalanganligi uchun oladigan haq (gonorar, qalam haqi) miqdori muallif bilan asardan foydalanuvchilar (masalan, nashriyot, teatr, ko'rgazma tashkilotlari va b.) o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi. Hozirda bu haq, bu haq miqdori asarni birinchi marta yoki qayta nashr etish, uning teraji, muallifning mashhurlik darajasi, asarning buyurtma bo'yicha yaratilganligi va shu kabi holatlarga bog'liq. Ko'p hollarda har bir nashryotda asarlar uchun ilgaridan belgilab qo'yilgan gonorar stavkalari mavjud amal qiladi<sup>8</sup>.

Shu o'rinda shuni takidlashimiz kerakki, mualliflar bir kishi yoki bir necha kishidan (hammualliflar) iborat bo'lishi mumkin. Hammualliflik bevosita mualliflikdan kelib chiqqan bo'lib, asar jamoaviy asosda, hamkorlikda yaratilgan bo'lsa, bunday asar mualliflari hammualliflar sifatida e'tirof etiladi.

<sup>6</sup> “The Creative Economy”, John Howkins, Penuim press 2002, ISBN 0-14-028794-9, - P.86.

<sup>7</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.07.2006. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

<sup>8</sup> Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya. – Toshkent 2000-yil 215-bet.

Quyidagi intellektual mulk obyektlariga nisbatan hammualliflik yuzaga keladi:

1. Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan.

2. Turdosh huquq obyektlariga nisbatan.

Qonunda<sup>9</sup> audiovizual asar mualliflari (hammualliflari) sifatida quyidagilardan ko'rsatilgan:

- ❖ sahnalashtiruvchi rejissor;
- ❖ ssenariy muallifi;
- ❖ muayyan audiovizual asar uchun maxsus yaratilgan matnli yoki matsiz musiqa asari muallifi;
- ❖ sahnalashtiruvchi operator;
- ❖ sahnalashtiruvchi rassom.

Shuningdek, intervyuda ham hammualliflikni ko'ramiz. Intervyuga bo'lgan mualliflik huquqi intervyu bergan shaxsga va intervyu olgan shaxsga, agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, hammualliflar sifatida tegishlidir.

Hammualliflarning har biri shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega. Mulkiy huquqlari esa tegishli kelishuvga ko'ra qonuniy asosda amalga oshiriladi. Hammualliflik O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq quyidagicha tavsiflanadi: Ikki<sup>10</sup> yoki undan ortiq jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo'linmas bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat'i nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo'ladi. Agar asarning muayyan qismidan uning boshqa qismlariga bog'liq bo'lmagan holda foydalanish mumkin bo'lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo'lgan qism deb e'tirof etiladi. Hammualliflarning har biri, agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, asarning o'zi yaratgan, mustaqil mazmunga ega bo'lgan qismidan o'z xohishiga ko'ra foydalanishga haqlidir. Hammualliflar o'rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, kelishuv asosida belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, asarga bo'lgan mualliflik huquqi barcha mualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, mualliflik haqi esa ular o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar hammualliflarning asari bo'linmas bir butunni tashkil etsa, asardan foydalanishni yetarli asoslar bo'lmay turib taqiqlab qo'yishga hammualliflardan hech biri haqli emas.

Yuqorida asar muallifi (hammuallifi) bilan mualliflik shartnomasi asosida ma'lum ma'noda uning huquqlariga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs asarga nisbatan huquq egasi bo'lishi mumkinligini ko'rib o'tdik. Masalan, nashriyot asar muallifi bilan shartnoma asosida uning asarini nashr qilishga mutlaq huquqqa ega

<sup>9</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

<sup>10</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

bo'ladi, teatr ham o'z navbatida asarni teatrda namoyish qilish bo'yicha mutlaq huquqga ega bo'ladi. Yoki, shoirning she'rini qo'shiq qilish uchun qo'shiqchi bilan shartnoma asosida undan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi.

Muallifning mulkiy huquqlari hajmi to'liq yoki cheklangan bo'lish mumkin. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqlar o'ziga emas, boshqa shaxsga tegishli bo'lsa, muallifning intellektual faoliyati natijasiga mulkiy huquqlari cheklangan harakterga ega bo'ladi<sup>11</sup>.

Muallifga yoki mualliflik huquqi egasiga uning asaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lov mualliflik to'lovi hisoblanadi. U royalti, sotish yoki boshqa haq to'lash shakllarida to'lanishi mumkin. Mualliflar va mualliflik huquqi egalari o'z asarlaridan foydalanganlik uchun to'lov talab qilishi mumkin bo'lgan bir qancha sabablar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

✓ **Asar yaratish uchun xarajatlarni qoplash.** Asar yaratish katta vaqt, resurslar va kuch sarflashni talab qilishi mumkin. Asardan foydalanganlik uchun to'lov muallif yoki mualliflik huquqi egasiga ushbu xarajatlarni qoplashga yordam beradi.

✓ **Ijodkorlikni rag'batlantirish.** Mualliflar va mualliflik huquqi egalari, agar ular o'z ishlari mukofotlanishini bilsalar, yangi asarlar yaratishga moyilligi oshadi. Ishdan foydalanganlik uchun to'lash ijodkorlikni rag'batlantirishga yordam beradi.

✓ **Ijodiy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash.** Asardan foydalanish uchun to'lov ijodkorlar va mualliflik huquqi egalari daromad keltirish orqali ijodiy hamjamiyatni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Yuqorida ko'rganimizdek, muallif va huquq egalari mualliflik haqi to'lash mualliflik shartnomasi tuzish orqali amlaga oshiriladi. Mualliflik shartnomasi deyilganda, bir tomondan fan, adabiyot va san'at asarining muallifi yoki uning ish beruvchisi yoxud boshqa mualliflik huquqlarining egasi, boshqa tomondan asardan foydalanuvchi o'rtasida shartnoma tushuniladi. Ushbu shartnomaga binoan muallif foydalanuvchiga haq evaziga, shartlashilgan usulda va belgilangan muddatda asardan foydalanish huquqini berishni, foydalanuvchi esa asardan o'ziga berilgan huquqqa muvofiq foydalanish va haq to'lash majburiyatini zimmasiga oladi. Tadqiqotchi A.Yuldashovga ko'ra, mualliflik huquqi sohasidagi nizoli murojaatlar quyidagi ikki turga ajratilgan: 1. Buyurtmachilar tomonidan muallif(lar)ga belgilangan mualliflik haqi gonorarlarni o'z vaqtida berilmayotganligi; 2. Mualliflarga to'lanishi lozim bo'lgan mualliflik haqlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagi PQ-3201-son qarori bilan tasdiqlangan mualliflik haqining eng kam stavkalaridan past foizlarda to'lanishi<sup>12</sup>.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi –T.: 1034-modda

<sup>12</sup> Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/С. – С. 511-522.

## Хулоса

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo'lsak, mualliflik haqi muallif hamda huquq egalari rag'batlantirish ular uchun ham, jamiyat va davlat uchun muhim hisoblanadi. Negaki, muallif qachonki yaratgan asaridan moddiy manfaat ko'rsagina o'z faoliyatidan hamda qilayotgan ishidan qoniqish hissi paydo bo'ladi va bunda mualliflik haqi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, mualliflar va mualliflik huquqi egalari jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Chunki, ular hayotimizni boyitadigan yangi san'at, adabiyot, musiqa, fan va texnika asarlarini yaratadilar. Bular o'z navbatida davlatning riojlanishi, insonlar hayotining farovon bo'lishiga katta yordam beradi. Masalan, musiqachi albomni sotish va undan daromad olish imkoniyatini bilsa, yangi albom yozish ehtimoli ko'proq bo'lishi, yozuvchi o'z kitobi ruxsatsiz nusxa ko'chirishdan himoyalanganligini va kitob sotuvidan royalti olishi mumkinligini bilsa, yangi kitob yozish ehtimoli ko'proq bo'lishi hamda dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi dasturni sotish va undan daromad olish imkoniyatini bilsa, yangi dasturiy ta'minot dasturini yaratish ehtimoli ko'proq bo'lishi mumkin.

Mamlakat taraqqiyoti ko'p jihatdan xalqning bunyodkorligiga bog'liq bo'lib, shaxs ijodini rag'batlantirish va uni ommalashtirish taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi. Milliy madaniy merosni boyitish bevosita adabiy va san'at asarlarini yaratgan mualliflar va huquq egalari o'z asarlari uchun haq olishning muhofaza darajasiga bog'liq. Mamlakatning intellektual ijodi qancha ko'p bo'lsa, uning shuhrati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Intellektual ijodni rag'batlantirish barcha ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, O'zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi<sup>13</sup>.

## Foydalanilgan manbalar

1. I.V.Yaqubova. Mualliflik huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashryoti. 2020. – 120 b;
2. Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни // Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59;
3. Omon Oqyulov. Intellektual mulk huquqi: Umumiy qoidalar va alohida obyektlar: Huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha oliy o'quv yurt. "Xususiy huquq" yo'nalishi magistratura talabalari uchun. T.I. (H.Rahmonqulovning umumiy tahriri ostida). – T.: Toshkent davlat yuridik institute, 2003. – 209 b.;
4. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>;
5. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права:

<sup>13</sup> Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни // Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.

национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/S. – С. 511-522.

6. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida obyektlar: Darslik. -T.: TDYU 2003.;
7. Ismoilov Sh. Mualliflik huquqi: kecha, bugun va ertaga! <http://nur.uz/>;
8. “The Creative Economy”, John Howkins, Penuim press 2002, ISBN 0-14-028794-9, - P.86.;
9. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>;
10. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya. – Toshkent 2000-yil 215-bet.;
11. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>;
12. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi –T.: 1034-modda